

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLARNING YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATI

*Abdihamidov Davron Shavkat O'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi 206-guruh kursanti*

*Ilmiy rahbar – podpolkovnik dotsent To'rayeva Dilnoza Rustambayevna*

*Jinoyat huquqi kafedrası katta o'qtuvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

### ANNOTATSIYA

Maqolada profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini tashkil etish, uning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, maxsus profilaktik chora-tadbirlarning bugungi kundagi holati, tizimi, ushbu faoliyatga to'sqinlik qilayotgan omillar, ilg'or xorij mamlakatlari tajribasi o'rganilib bu borada erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi bo'yicha faoliyatining tashkiliy asoslari keltirilgan.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается организация индивидуальной профилактики преступлений инспекторами-профилактиками, ее особенности, задачи, современное состояние специальной профилактики, система, факторы, препятствующие этой деятельности, опыт передовых зарубежных стран, достижения в этом отношении. разработаны предложения по закреплению положительных результатов, представлены организационные основы деятельности инспектора профилактики по индивидуальной профилактике правонарушений.

### ANNOTATION

The article examines the organization of individual prevention of crimes by preventive inspectors, its specific features, tasks, the current state of special preventive measures, the system, the factors hindering this activity, the experience of advanced foreign countries, and the achievements in this regard. proposals for strengthening positive results were developed, the organizational bases of the prevention inspector's activity on the individual prevention of violations were presented.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora tadbirlar amalga oshirilib, bu esa mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga imkoniyat yaratmoqda.

Aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash bugungi kunda eng muhim vazifadir. Shu bois, 2014-yildan buyon mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tubdan isloh qilish borasidagi ishlarning yangi bosqichi boshlangan va 2017 yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning mutlaqo yangi va ta'sirchan tizimini yaratish qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida bir qancha qonun va qarorlar qabul qilindi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari shu jumladan, videokuzatuv, elektron hisobga olish va o'zaro axborot almashish, idoralararo ma'lumotlar bazalari tizimlari profilaktik ishlarga keng joriy etilmoqda.

Ayniqsa, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng tatbiq qilinmoqda. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori ham huquqbuzarliklarning maxsus amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari profilaktika inspektorlari qaysi toifadagi shaxslar bilan ko'proq ishlashi va bunda huquqbuzarliklarning keskin kamayishi uchun huquqbuzarliklarning oqibatlariga qarshi kurashish emas uning barvaqt oldini olish zarurligi o'z ifodasini topgan. Shuningdek, profilaktika inspektorlarning yakka tartibdagi profilaktikasi bo'yicha faoliyatini tashkil etishning bugungi holati, maxsus profilaktikaning amalga oshirish chora-tadbirlari, usullari va ushbu sohaga tadbiq etilishi lozim bo'lgan bir qancha takliflar bayon etilgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimidagi dastlabki islohotlar natijasida mahallalarda tinchlik-osoyishtalik mustahkamlandi, jinoyatlarni tezkorlik bilan ochish ko'rsatkichi yaxshilandi. Ushbu islohotlarda profilaktika inspektorlarining vazifa va vakolatlari tasdiqlangan bo'lib, unda aynan huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshiradilar deb belgilanganidan bilishimiz mumkinki, aynan profilaktika inspektorlari o'z xizmat vazifalarini o'z xizmat hududlarida bajarayotgan vaqtda huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini doimo amalga oshirib borishi lozim va bu huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning eng ta'sirchan usuli va vositasi hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasi – bu huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir

etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidir.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat bo'lib ular quyidagilar:

- profilaktika suhbat;
- rasmiy ogohlantirish;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish;
- ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;
- profilaktik hisobga olish;
- majburiy davolanishga yuborish;
- ma'muriy nazorat.

Profilaktika suhbat shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirishdan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat bo'ladi. Profilaktika suhbat shaxsni profilaktik hisobga qo'yishda ham o'tkaziladi. Profilaktika suhbat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan vakili tomonidan o'tkaziladi. Profilaktika suhbat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa joylashgan erda, shuningdek shaxsning yashash, o'qish, ish joyida yoxud bevosita g'ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbuzarlik aniqlangan joyda o'tkaziladi. Profilaktika suhbat davomida shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy yashash sharoitlari, shuningdek g'ayriijtimoiy xulq-atvorning yoki sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi. Ilgari o'tkazilgan profilaktika suhbat ijobiy natija bermagan va shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorni yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni davom ettirgan hollarda, unga nisbatan rasmiy ogohlantirish qo'llaniladi. Profilaktika inspektorlari profilaktik suhbat olib borish orqali shaxsning o'ziga xos xususiyatlari undagi mavjud muammolarni, uning oilaviy ahvoli huquqbuzarlik sodir etishga qay darajada imkoniyatlari mavjud ekanligi holatlarini batafsil o'rganib unga nisbatan qay tartibda ta'sir o'tkazish va uning huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi.

Huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari guruhiga kiruvchi rasmiy ogohlantirish – bu shaxsning uning g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risida yozma ravishda tushuntirishdan, shuningdek huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsni huquqbuzarlik sodir

etganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirishdan iborat bo'ladi. Rasmiy ogohlantirish huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsi tomonidan chiqariladi hamda shaxsga imzo qo'ydirib e'lon qilinadi, u imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda esa, rasmiy ogohlantirishga bu haqda yozib qo'yiladi. Bu profilaktika chora- tadbiri huquqbuzarlik sodir etish arafasida bo'lgan yoki huquqbuzarlik sodir etishga tayyorlanayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan ularni bu niyatlaridan qaytarishda o'zining juda kata samarasiga ega hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi yoki unda ishtirok etuvchi organ yoki muassasa, o'z vakolatlari doirasida, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar haqida ish, o'qish joyidagi ish beruvchini, yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini g'ayriijtimoiy xulq-atvorning va sodir etilgan huquqbuzarlikning holatlarini, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni ko'rsatgan holda xabardor qilishga haqli.

Profilaktik hisobga olish ushbu Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan shaxslarga nisbatan ularning tuzalishi va takroran huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika tadbirlari majmuidir. Profilaktik hisobga olishni amalga oshirish tartibi va shartlari ushbu Qonun va boshqa qonunchilikda belgilanadi.

Profilaktik hisobga olish quyidagi shaxslarga nisbatan yuritiladi:

- ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o'taganidan so'ng, o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasno;

- o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga;

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga;

- o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga;

- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165<sup>1</sup>, 183, 184, 184<sup>1</sup>, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 187, 188, 188<sup>1</sup>, 189, 189<sup>1</sup>, 190, 191, 201, 202, 202<sup>1</sup>, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga;

- ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlarga nisbatan profilaktika inspektorlari tomonidan profilaktik hisob ishi yuritilib boriladi.

Shaxsni profilaktik hisobga olish u profilaktik hisobga qo'yilgan paytdan e'tiboran bir yil mobaynida amalga oshiriladi.

Shaxsni majburiy da'volanishga yuborish - bu surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxs tomonidan jamoat tartibi, boshqa shaxslarning huquqlari buzilgan yoxud u aholining xavfsizligi, sog'lig'i va jamiyatning axloqiga tahdid solgan taqdirda ichki ishlar organlari "Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) va boshqa qonunchilikka muvofiq uni majburiy davolanishga yuborish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi.

Ma'muriy nazorat – bu ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar ustidan ma'muriy nazorati tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari majmuidan iborat bo'ladi va nazorat ostidagilarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan cheklovlarni qo'llashdan iborat bo'ladi. Ma'muriy nazoratni o'rnatish, amalga oshirish va tugatish tartibi, shuningdek qo'llaniladigan cheklovlar ro'yxati jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorati to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi.

Yuqorida barcha yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish asoslari va tartibikeltirib o'tildi, ana endi ushbu profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishda bir qancha yangi vositalarni qo'llash lozim bo'ladi misol uchun ; profilaktika inspektorlari profilaktik suhbatni amalga oshirish jarayonida mamalakatimizda qabul qilinayotgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar ya'ni qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar, farmoyishlar va qonunlar loyihasi bilan muntazam tanishtirib borish amaliyotini tadbir maqsadga muvofiqdir. Negaki, yangi O'zbekiston yangi demokratik huquqiy islohotlar amalga oshirilishini hayotning o'zi ko'rsatmoqda bu esa xalqimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuqori bo'lishini talab qiladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining o'sib orishi qaysidir ma'noda huquqbuzarlikning profilaktikasi ham hisoblanadi.

Bundan tashqari, rasmiy ogohlantirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, rasmiy ogohlantirishni qayd etish elektron bazsini yaratish lozim, chunki profilaktika inspektori har bir shaxsning g'ayri-huquqiy harakatini tuzatishi uchun bir bor imkoniyat berilishi va bu imkoniyatdan o'ziga to'g'ri xulosa chiqarmaganida esa unga huquqbuzarligi uchun jazo tayinlanishi insonparvarlik prinsipini amalda namoyon bo'lishi va demokratik jarayondan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har qanday davlatda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlari doimo diqqat markazida turadi. Chunki tartib bo'lgan, xavfsizlik ta'minlangan yurtda tinchlik-osoyishtalik, fayz-u baraka va taraqqiyot bo'ladi, jamiyat va davlat yuksalib boradi. Bu

esa huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish esa oqilona boshqaruv tizimi bo'lishini taqozo etadi.

Albatta aytib o'tish joizki, har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ oldidagi asosiy vazifa va maqsad fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kerakligi, davlat organlarini yangi qiyofasini shakllantirilsa, shundagina fuqarolarning ishonchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ijobiy bo'lishi ko'zda tutiladi. Hozirgi kunda respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi tizimi zamonaviy transport vositalari va aloqa vositalarini yaratilishi, texnik ta'limot yaxshilanishi, jamoat joylarida videokuzatuv moslamalari o'rnatilishi bu borada juda qo'l kelmoqda. Jamoat tartibi va xavfsizlik masalalariga barcha idora, tashkilot va muassasa, har bir fuqaro e'tiborini qaratishi, bunga o'z hissasini qo'shishga davat etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotgani ham o'z samarasini bermoqda. Biroq ushbu yo'nalishni yanada kuchaytirish talabi hamon yuqoriligicha turibdi. Bu esa mazkur masalaga yanada ko'proq e'tibor qaratishni, uni tahlillar, ilmiy tadqiqotlar asosida chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning salbiy oqibatlarini oldini olish bugungi kunda jamiyatimizning har bir azosi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni unutmasligimiz lozimki, biz XXI asrda intellektual qadriyatlar ustuvor bo'lgan asrda, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olayotgan va jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan asrda yashamoqdamiz. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda huquqbuzarliklarni oldini olish xizmatlari tomonidan o'tkazilayotgan maxsus profilaktik tadbirlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda mahallaning va shu mahallada xizmat olib boradigan profilaktika inspektorlarining o'ziga xos nufuzi va o'rniga alohida e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
2. "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005
3. "O'zbekistan Respublikasida interpolning milliy markaziy byurosini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Maxkamasining 29.11.1994 yil 574-son qarori
4. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)
5. 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6196 son Farmoni

6. O‘zbekiston Respublikasi.ning Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» nomli ma‘ruzasi

7. 2021 yil 30 noyabr “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yuridik yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

8. “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5005